

**ONA TILI DARSLIGIDA FONETIKA VA FONOLOGIYASI O‘RNI**

***Tursunov Jaxongir Panjixonovich***

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi*

*kafedrasi o‘qituvchisi*

*jakhongir.9613@gmail*

***Rahmatova Nilufar***

*TerDPI Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti*

*Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.*

ANATATSIYA. Nutq barcha aqliy faoliyatning asosi, muloqot vositasidir. O‘quvchilarning qiyoslash, tasniflash, tizimlashtirish, umumlashtirish malakalari nutq orqali bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllanadi va nutq faoliyatida ham namoyon boladi. O‘quvchining mantiqiy aniq, dalillarga asoslangan, obrazli og‘zaki va yozma nutqi uning aqliy rivojlanishining ko‘rsatkichidir. Ushbu maqolada maktab darsliklarida fonetika o‘qitish muammolari xususida qisqacha so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Fonetika, metodlar, til kompetensiyasi, monologik va diologik shakllar, grammatik tushuncha, imloviy savodxonlik

Nutq barcha aqliy faoliyatning asosi, muloqot vositasidir. O‘quvchilarning qiyoslash, tasniflash, tizimlashtirish, umumlashtirish malakalari nutq orqali bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllanadi va nutq faoliyatida ham namoyon bo‘ladi. O‘quvchining mantiqiy aniq, dalillarga asoslangan, obrazli og‘zaki va yozma nutqi uning aqliy rivojlanishining ko‘rsatkichidir. Ushbu maqolada maktab darsliklarida fonetika o‘qitish muammolari xususida qisqacha so‘z yuritiladi.

Ona tili darsining maqsadi yozish va o‘qishni yuqori darajada samarali fonologiya (fono... va ...logiya) — tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonuniyatlarini, tilning eng mayda, ma’no bildirmaydigan birliklari — bo‘g‘inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo‘llanishini o‘rganuvchi bo‘limi. Fonologiyaning fonetikadan farqi shundaki, uning diqqat markazida fizik hodisa

sifatidagi tovushlarning oʻzini emas, balki ularning nutqda yanada murakkabroq maʼnoli birliklar — morfemalar, soʻzlarning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan vazifasini oʻrganish turadi. Shu tufayli fonologiyani baʼzan funksional fonetika deb ham ataydilar. Ruschex tilshunosi N. S. Trubetskoyning aniqlashicha, fonologiya bilan fonetika oʻrtasidagi oʻzaro munosabat shundan iboratki, har qanday fonologik tavsifning ibtidosi maʼno farqlovchi tovushiy ziddiyatlarni aniqlashdir; fonetik tavsif esa boshlangʻich nuqta va moddiy asos sifatida qabul qilinadi.

Fonologiyaning asosiy birligi — fonema, asosiy tadqiqot obyekti — fonemalarning zidlanishlari (oppozitsiyalari) boʻlib, bu oppozitsiyalar bir butun holda tilning fonologik tizimini hosil qiladi. Muayyan oʻrinda bir fonemaning ikkinchisiga qarama qarshi qoʻyilishini namoyon etuvchi soʻzlar (burborbir kabi) kvaziomonimlar (soxta omonimlar) deyiladi. Odatda, tildagi fonemalar soni kvaziomonimlar yordamida aniqlanadi va bunda biryoʻla bir fonemani ikkinchisiga qarama qarshi qoʻyish orqali ularning farqlanish elementlari tasnif etiladi. Mas, tol,sol soʻzlaridagi ikki fonema — t va s portlovchi, sirgʻaluvchi farqlanish elementlariga ega. Ularning har ikkisi ham til oldi, jarangsiz, shovqinli undoshlardir va bu belgilari farqlanmovchi elementlar deyiladi. Demak, fonema tilda oʻz vazifasini fonologik jihatdan farqlanuvchi va farqlanmovchi elementlar orqali bajaradi.oydalanishdir.

Fonologiya zamonaviy maʼnodagi mustaqil tilshunoslik fani sifatida 20-asrning 20—30-yillarida shakllandi; uning yaratuvchilari N. S. Trubetskoy, russhveysar olimi S.O.Karsevskiy, rusamerika tilshunosi R.S. Yakobsonlar boʻlib, ular 1928-yil Gaagada boʻlib oʻtgan Tilshunoslarning 1-xalqaro kongressida fonologiyaning asosiy gʻoyalarini bayon etganlar. N. S. Trubetskoyning "Fonologiya asoslari" (1939) kitobi fonologiya taraqqiyotidagi eng muhim bosqich boʻlgan. Fonologiya paydo boʻlishining ilk asoslari 19-asr oxirlarida nemis olimi I. Vinteler va ingliz olimi G. Suit asarlarida, umumnazariy jihatlari keyinchalik F. de Sossyur tadqiqotlarida shakllangan. Ayniqsa, fonologiyaning rivojlanish asoslarini yaratishga ruspolyak tilshunosi I. A. Boduen de Kurtene katta hissa qoʻshdi. Fonema gʻoyasi va uning prinsiplari ilk marta uning asarlarida ishlab chiqilgan. Boduen de Kurtene tadqiqotlari negizida Leningrad va Moskva fonologik maktablari shakllandi (oʻzbek tilshunoslarining fonologik tadqiqotlari ham asosan ana shu maktablar

ta'sirida yaratilgan). Hozirgi kunda mazkur maktablarning fonologik nazariyalaridan tashqari Yevropa va AQShda yana 10 ga yaqin fonologik nazariyalar yaratilgan.

O'zbek tili fonologiyasini o'rganishda Ye.D. Polivanov, V. V. Reshetov, A. Nurmonov, A. Abduazizov va boshqalarning ilmiy ishlari ayniqsa ahamiyatlidir.

Fonologiya ham fonetika kabi umumiy fonologiya, xususiy fonologiya, tarixiy (diaxronik) fonologiya va tasviriy (sinxronik) fonologiyaga bo'linadi. Umumiy fonologiya fonemaning mohiyati, fonemalar o'rtasidagi hamda fonema va tovush o'rtasidagi munosabatlarni, fonemaning morfema va so'zga bo'lgan pog'onali munosabatini o'rganadi; tilning fonologik (fonematik) tarkibini aniqlashning metod va tamoyillarini belgilaydi. Xususiy fonologiya, umumiy fonologiyaning metod va tamoyillariga asoslangan holda, u yoki bu tilning fonologik tizimini o'rganadi; o'z navbatida, umumiy fonologiyaga material beradi. Tarixiy fonologiya ma'lum bir til fonologik tizimining tarixiy taraqqiyotini, tasviriy fonologiya esa tarixiy taraqqiyot jarayonidagi muayyan bir davrning fonologik tizimini o'rganadi. Fonetika (yunoncha: *phonetikos* — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovozli) — 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma'noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo'shib, uning o'rganish obyekti yanada kengaytiradilar (rus olimi L. V. Shcherba). O'zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari [ularning artikulyatsion, akustik, persektiv (psixofonetik) va funksional tomonlari] va ohang (bo'g'in, sintagma, urg'u va boshqalar) o'rganiladi.

Nutqning tovush tomoni segment (lotincha: *segmentum* — qirqim, parcha, bo'lak) va ustsegment (*supersegment*) birliklarga bo'linadi. Segment birliklar ketmaket joylashadi (bir vaqtning o'zida 2 ta tovushni talaffuz qilib bo'lmaydi). Shuning uchun ularni silsilali yoki ketmaket birliklar deyish mumkin. Ustsegment birliklarga urg'u va ohang (intonatsiya) kiradi. Bu birliklar segment birliklar ustiga qo'yiladi va ularga turlicha tus beradi.

Har qanday nutq tovushi, avvalo, nutq a'zolarining harakati tufayli talaffuz etiladi, ya'ni fiziologik xususiyatga ega. Ikkinchidan, u havoning ma'lum elastik jiyemni

tebratishidan hosil bo‘ladi; demak, uning akustik (fizik) jihati bor. Uchinchidan, muayyan so‘z va morfemaning ma’no tomoni bilan tovush qobig‘i birgalikda inson ongida shakllanadi, zero inson ma’lum tovushlar majmuini eshitish bilan qabul qilar ekan, ushbu majmu zaminidagi ma’noni idrok etadi, bu perseptiv (psixofonetik) xususiyat sanaladi. Va nihoyat, eng muhimi, nutq ma’lum vazifani bajaradi, binobarin, funksional qimmatga ega. Nutq tovushlari yuqoridagi xususiyatlariga ko‘ra turli nuqtai nazardan o‘rganilishi mumkin. Fonetika tilning tovush tizimini qaysi jihatdan o‘rganishi (maqsadi) nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo‘linadi: umumiy fonetika; tarixiy (diaxron) fonetika; tasviriy (sinxron) fonetika; qiyosiy fonetika; eksperimental fonetika Yuqoridagilar bilan birga xususiy fonetika ham ajratiladiki, unda barcha fonetik xususiyatlar aniq bir til misolida o‘rganiladi.

Umumiy fonetika barcha tillar uchun umumiy bo‘lgan fonetik xususiyatlarni (nutq tovushlarining hosil bo‘lishi, ularning universal tasnifi, tovushlarning birikish qonuniyatlari, yondosh tovushlardan birining ikkinchisiga ta’siri va boshqalarni) o‘rganadi. Umumiy fonetika xususiy fonetika materiallariga asoslanadi. Tarixiy fonetika tilning fonetik tizimini tarixiy taraqqiyotida, rivojlanish jarayonida o‘rganadi. Tasviriy fonetika esa muayyan til fonetik tizimining hozirgi holatini o‘rganadi. Qiyosiy fonetika ikki til fonetikasini, qarindosh tillar tovush tizimini bir-biriga qiyoslabo‘rganadi. Eksperimental fonetika nutqtovushlarini, fonetik hodisalarni ma’lum texnik vositalar yordamida o‘rganadi.

Nutq tovushlarining hosil bo‘lish mexanizmini o‘rganish 17-asrda boshlangan bo‘lib, bu hol karsoqovlarni o‘qitish ehtiyojidan kelib chiqqan (ispaniyalik X. P. Bonet, angliyalik J. Uilkins, niderlandiyalik I. Amman asarlari). Tilningtovush tomonini har jihatdan lintvistik nuqtai nazardan o‘rganish birinchi marta nemis olimi E. Ziversning „Tovush fiziologiyasi asoslari“ (1876, 2nashri „Fonetika asoslari“ deb nomlanadi, 1881) asarida kuzatiladi. Rossiyada umumiy fonetikaning rivojiga I. A. Boduen de Kurtene va uning shogirdlari V.A. Bogoroditskiy va L. V. Shcherbalar o‘z asarlari bilan muhim hissa qo‘shdilar.

Fonetika tilning boshqa sohalari bilan bog‘liq, chunki tovush, urg‘u va ohangsiz bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi va ran bo‘lmaydi. Shu tufayli fonetika leksika, morfologiya,

sintaksis va stilistika bilan bog‘liq til bosqichi deb qaraladi. O‘zbek tili fonetikasi ham chuqur o‘rganilmoqda. O‘zbek tilining tasviriy fonetikasini tadqiq qilishda V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, fonetika Abdullayev, A. G‘ulomovlar; o‘zbek tili fonetikasini 60-yillar oxiridan eksperimental o‘rganishda A. Mahmudov va S. Otamirzayevalar; o‘zbek tilining tarixiy fonetikasini o‘rganishda fonetika Abdullayev, G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, H. Ne‘matov, E. Umarovlarning xizmatlari katta. Fonetika fonologiya bilan uzviy bog‘liq. 2) ma‘lum tilga xos tovushlarning akustik va artikulyatsion (fiziologik) xususiyatlari, muayyan tilning fonetik tuzilishi. Mas, o‘zbek tili fonetikasi. Tilni, nutqni o‘zlashtirish ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning zaruriy shartidir. Har bir shaxs o‘z nutqini aniq va grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishga o‘rganishi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda erkin ijodiy talqin qilish, nutq madaniyatini kuzatish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Ammo shuni e’tirof etish kerakki, izchil nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda ko‘pincha tizimli yondashuv, zarur mashqlar tizimi va bu ish uchun zarur bo‘lgan yordamchi vositalar mavjud emas. Bu esa, hozirgi vaqtda maktabda ko‘pchilik o‘quvchilarning nafaqat og‘zaki, balki yozma nutqining savodsizligi, nomuvofiqligi, qashshoqligi kabi juda katta muammoga duch kelishiga olib keladi. Ona tili ta’limiga qo‘yilgan muhim talablardan biri o‘quvchilarni o‘z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir. Fikr esa faqat til yordamida ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi zarur. Ona tili o‘qitishni foydali maqsadlarga bo‘ysundirish, har bir o‘rganiladigan grammatik tushuncha, ma’lumot, ta’rif va qoidalarning og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishga yordamini nazarda tutishni, amaliy tilshunoslikka e’tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili davlat tili to‘g‘risida” gi qonuni 1989-yil 21-oktabr;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasining “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”;
4. Ruzikulovna, Shabbazova D. "The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes." *JournalNX*, vol. 7, no. 11, 2021, pp.

5. Shabbazova, D. (2023). PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE LITERACY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON A PERSONAL VALUE APPROACH. *Academia Science Repository*, 4(05), 12-19.

6. Ruzikulovna, S. D. (2023). Analysis of the Level of Valuable Approach to Primary Class Students. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 227-230.

7. Ruzikulovna, S. D. (2021). PRIMARY EDUCATION TEACHER AND STUDENT TEACHING ACTIVITIES AND SYSTEM OF PERSONAL VALUES. *European Scholar Journal*, 2 (7), 32-33.

8. Shabbazova, D. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY QADRYATLI YONDASHUV. MONOGRAFIYA. Termiz-2023. *Interpretation and Researches*, 1(1).

9. Tursunov J. TA‘LIMIY LUG ‘AT YARATISH TAMOYILLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 384-393.

10. Jahongir T. TA‘LIMIY LUG ‘AT YARATISH TAMOYILLARI. – 2022.

11. Butayorova M. K. THE IMPORTANCE OF POSITIVE RELATIONSHIPS IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 121-125

12. Toshtemirovna R. G., Butayorova M. METHODOLOGICAL BASES FOR THE USE OF MODERN TEACHING TECHNOLOGIES IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE IN PRIMARY GRADES //International Journal of Pedagogics. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 88-91..

13. Butayorova M. X. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish-O‘quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim omili sifatida //TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 113-118.

14. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - 2009;

15. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>;

16. <https://azkurs.org/samarqand-davlat-universiteti-v6.html?>